

SITORAI MOHI XOSSANING SHARQONA NAFOSATI VA YEVROPA USLUBI TA'SIRI

Baxshullayeva Dilnoza Nutfullo qizi

*Buxoro davlat pedagogika instituti Tarix
ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Sitorai Mohi Xossa saroyi – Buxoro amirlarining eng go'zal va betakror me'moriy yodgorliklaridan biri bo'lib, unda Sharq san'ati va G'arb texnologiyalari uyg'unlashgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qurilgan bu saroy nafis ganch naqshlari, yog'och o'ymakorligi, marmar hovuzi va chiroyli ayvonlari bilan ajralib turadi. Oqsaroy qabulxonasi, bezakli shiftlar va xorijdan olib kelingan hashamatli jihozlar uning o'ziga xosligini yanada oshiradi. Bugungi kunda u tarixiy va madaniy meros sifatida muhofaza qilinib, sayyohlarning eng ko'p tashrif buyuradigan maskanlaridan biriga aylangan.

Kalit so'zlar: Sitorai Mohi Xossa, Buxoro, amirlar saroyi, Sharq va G'arb me'morchiligi, ganch o'ymakorligi, hunarmandchilik, tarixiy yodgorlik, madaniy meros, Oqsaroy, sayyohlik ob'ekti.

Sitorai Moxi Xossa saroyi – XIX-XX asrlarga oid noyob me'moriy majmua bo'lib, Buxoro hukmdorlari tomonidan bunyod etilgan. Saroy Buxoro shahridan taxminan 4 km shimoli-g'arbda, shahar shovqinidan uzoqda, osoyishta va xushhavo hududda joylashgan. Uning betakror me'moriy yechimlari Sharq san'ati va hunarmandchilik an'alarini o'zida mujassam etgan.

Bu muhtasham saroy Buxorodagi Mang'itlar sulolasining uchinchi avlodiga tegishli bo'lib, dastlabki binolari Nasrullaxon (1826-1860) va Muzaffarxon (1860-1885) davrida qurila boshlagan. Keyinchalik, Abdulahadxon (1885-1910) hukmronligi yillarida saroy hududida xushmanzara bog'lar barpo etilgan. Saroyning asosiy binolari esa Buxoroning so'nggi amiri Sayyid Amir Olimxon (1910-1920) tomonidan qurilgan.

Saroy umumiy 10 gektar maydonni egallagan bo'lsa-da, bugungi kunda uning faqatgina 6,7 gektari saqlanib qolgan. Qolgan qismlari vaqt o'tishi bilan yo'qolgan yoki boshqa maqsadlarda ishlatilgan. Majmuaning asosiy kirish eshigi nafis bezaklarga ega bo'lib, undagi tantanavor darvoza hayratga soladi. Portal qismida ko'fiy xatida bitilgan hadis: "Sulton Allohning yerdagi soyasi" degan mazmunga ega. Darvoza tepasida yana bir yozuv joylashgan bo'lib, unda: "Shohona baxtdan olam ishi aylanadi. Chunki podshohlarning baxti adolatdan bino qilindi" degan so'zlar yozilgan.

Darvozadan ichkariga kirilganda, o'ng tomonda xazinaxona, chap tarafda esa soqchilar xonasi joylashgan. Saroyning shimoliy tomonda joylashgan ikkinchi

darvozasi esa hovuz yaqinida bo‘lib, hozirda ta‘mirtalab holatda. Ilgari bu darvoza boloxonasidan turib amir otxonasi va filxonasini kuzatgan.

Majmua ikkita asosiy hovliga – havli darun va havli berun ga ajratilgan. Bu ikki hovli orasida Samarqand teragidan tayyorlangan eshiklar orqali o‘tiladigan dolon joylashgan. Saroyga kiraverishdagi oq darvoza ustida 1905-yilda yozib qoldirilgan yozuv mavjud:

"Mo‘minlar amiri, podshohning farmoni bilan oliy darajada turfa xil ta‘mirlandi. Osmon ostida bu kabi go‘zal tarxli bino yo‘q. Uni ko‘rgan har bir kishi: 'Salom berdik, ming ofarin', deydi. Usta Shirin uning qurilgan tarixini so‘radim: Ey oliy kasr, Yer yuzidagi jannat deb aytdi."

Hovli darunning II shaklida qurilgan bosh hovlisiga – salomxonaga olib boruvchi yo‘lak mavjud. 1911-1915 yillarda barpo etilgan binoning ikki tomoni xonalardan iborat bo‘lib, ulardan biri yog‘och ayvon bilan bezatilgan. Ayvon sakkiz ustunga tayanib, to‘rtta naqshinkor arkalar bilan bezatilgan bo‘lib, uning nafisligi binoning go‘zalligini yanada oshiradi. Devorlarga chizilgan egik majnuntollar esa salomga kelgan kishilarning ta‘zimini ifodalayotgandek taassurot uyg‘otadi. Ayvon yog‘och o‘ymakorligi usta Karimjon Taxta tomonidan feruza rangda pardozlangan bo‘lib, har bir detali kishiga estetik zavq bag‘ishlaydi.

Hovlining markazida joylashgan marmar hovuz esa o‘ziga xos favvora bilan ajralib turadi. Undan yuqoriga purkalgan suv ikkita marmar baliq og‘zidan chiqadi. Ushbu favvoraning ishlash mexanizmi Germaniyadan keltirilgan dvijoklar asosida yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu saroyning texnik mukammalligi va estetik jozibasini yanada oshirgan.

Saroyning ichki bezaklari va jihozlari turli davlatlardan keltirilgan. Masalan, qandillar Polshadan, chiroqlar Avstriyadan, parket taxtachalari Rossiyadan, qulf va dastaklar Britaniyadan, pech koshinlari Germaniyadan, vitraj oynalar Fransiyadan, ko‘zgular esa Italiyadan olib kelingan. Bu esa Sharq va G‘arb me‘morchiligi uyg‘unligining yorqin namunasi sifatida Sitorai Mohi Xossa saroyini yanada betakror qiladi.

Sitorai Mohi Xossa saroyining eng ajoyib va chiroyli xonalaridan biri bo‘lgan Oqsaroy, o‘zining go‘zalligi va nozik bezaklari bilan har qanday mehmonni ta‘sirlantirgan. Bu xona qabulxona sifatida xizmat qilgan va amir huzuriga kirishdan oldin tashrif buyuruvchilar aynan shu xonada kutishgan. "Xonai intizor" deb atalgan xonaning naqshlari va ranglar uyg‘unligi shunchalik maftunkor bo‘lib, unda vaqtning qanday o‘tganini anglash qiyin bo‘lgan.

"Gulxona" nomi bilan tanilgan ushbu xonaning har bir burchagi nafaqat san‘at asari, balki mohiyatan estetik go‘zallikni namoyon etadi. Xonaga kirgan mehmonlar birinchi navbatda devorlar va shiftlar bo‘ylab joylashgan o‘yinchan ganch bezaklariga e‘tibor qaratishadi. Ayniqsa, 18 ta ganchkor ravok bu xonaga alohida joziba qo‘shgan.

Bu ulkan me'moriy yodgorlik 25 nafar mahoratli usta va ularning shogirdlari tomonidan yaratilgan.

Devorlardagi qiziqarli elementlardan biri Rossiyadan keltirilgan nozik oyna bo'laklaridir. Ularning usti ganch naqshlari bilan bezatilgan bo'lib, oyna yaltirashi xonadagi barcha narsalarni 40 ming mayda oyna parchasiga bo'lib, ajoyib tasvirlar yaratgan. Oqsaroyning bezaklari taniqli me'mor Shirin Murodov boshchiligidagi ustalar tomonidan ishlangan. Xonaning markazida 500 kg og'irlikdagi bronza kandil osilib turibdi. Bu kandil Polshadan olib kelingan va uning chiroqlari Avstriyada tayyorlangan.

Saroyda joylashgan chinni bezaklar ham o'ziga xos. Tokcha va ravoklarga joylashtirilgan nafis chinni idishlar maxsus ravishda chet eldan keltirilgan. Xonaning poygasi esa turkman ayollari tomonidan to'qilgan qizil baxmal gilam bilan qoplangan bo'lib, og'irligi 350 kg ga yetadi. Shuningdek, xonaning yana bir qiziqarli jihati shundaki, amir o'z yotog'idan bu yerga kelishini bildiruvchi to'rtta maxsus eshik mavjud. Bu eshiklar turli yo'nalishlarga olib boradi: biri salomxonaga, ikkinchisi Abdulahad saroyiga, uchinchisi yotoqqa, to'rtinchisi esa xazinaxonaga.

Qabulxonaning chap tomonida Venetsiyadan olib kelingan oynalar o'rnatilgan bo'lib, ularning tiniqligi va akslantirish xususiyati mehmonlarni hayratga solgan. Ushbu daxliz orqali "Xonai bozi" nomli ko'ngilochar xonaga kirish mumkin. Bu yerda shaxmat, shashka, domino kabi o'yinlar o'ynalgan va devorlardagi rangli Fransiya shishasidan ishlangan shaxmat doskalari xonaning funksiyasini o'ziga xos tarzda namoyon etgan.

Xulosa. Sitorai Mohi Xossa saroyi – Buxoro amirlarining hashamatli qarorgohi bo'lib, Sharq va G'arb me'morchiligi uyg'unligini namoyon etuvchi nodir yodgorliklardan biridir. XIX-XX asrlarda qurilgan bu saroy o'zining ganch o'ymakorligi, noyob bezaklari va texnik mukammalligi bilan ajralib turadi. Oqsaroy, xazinaxona, filxona va bog'lar majmuasi saroyning eng muhim qismlaridir. Bugungi kunda Sitorai Mohi Xossa Buxoroning tarixiy merosi sifatida muhofaza qilinib, sayyohlar e'tiborini tortuvchi muhim obidalardan biri hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Jumayev Q. "Sitorai Mohi Xossa". – Toshkent: Fan nashriyoti, 2005.
2. Muiniy R. "Buxoro me'moriy yodgorliklari". – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2007.:
3. "Buxoro tarixi" Qahramon Rajabov Sulaymon Inoyatov.
4. Shavkat Bobojonov. "Sharif shahar yodgorliklari" Buxoro nashriyoti, 2017 yil